

Управление по вопросам миграции МВД РФ (Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya boshqarmasi) xorijiy fuqarolarni ishga joylashtirishda qonunbuzarliliklari uchun ish beruvchini jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin.

Agar ish beruvchi sizga ikki oy va undan ortiq vaqt moya-nida ish haqingizni to'lamasa, siz Следственный комитет РФ (Rossiya Federatsiyasi Tergov qo'mitasiga) murojaat qilishingiz mumkin: ish haqini to'lashda uzoq vaqt kechikish jinoiyat hisoblanadi (Уголовного кодекса РФ (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining) 145.1-moddasi).

#### Sud himoyasi

Ishchi huquqlari buzilishi haqida bilgan kundan boshlab 3 oy ichida va ishdan bo'shatish bo'yicha nizolarni bartaraf etish uchun ishdan bo'shatilganligi to'g'risidagi buyrug'i berilgan kundan yoki ish kitobchasini olgan sanasidan boshlab bir oy ichida sudga murojaat qilishi mumkin ( TK РФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 392-moddasi).

#### ISH QIDIRUV

[www.trudvsem.ru](http://www.trudvsem.ru) – Rossiyada ishslash: umum Rossiya Mehnat Ministrligining bo'sh ish joylari

[www.fms.superjob.ru](http://www.fms.superjob.ru) – bo'sh ish joylarining rasmiy baza-si ФГУП «Паспортно-визовый сервис МВД России» (Ichki Ishlar Ministrligining “Pasport va viza xizmati”)

СПб ГАУ «Центр трудовых ресурсов» (Sankt-Peterburg shahar boshqarmaligining “Mehnat resurslari markazi”) 198207, Rossiya, Sankt-Peterburg, Трамвайный проспект, 12-uy, 2-kv.

Tel.: 8 (812) 758-09-27

Sayt: [www.gauctr.ru](http://www.gauctr.ru)

e-mail: [gauctr@rspb.ru](mailto:gauctr@rspb.ru)

Mehnat muhojirlari uchun Ishonch telefoni: 8 (800) 333-70-97

СПб ГАУ «Центр занятости населения Санкт-Петербурга» (Sankt-Peterburg shahar boshqarmaligining “Aholini ish bilan taminlash markazi”)

190000, Rossiya, Sankt-Peterburg, Галерная ко'chasi, 7-uy

Tel.: 8 (812) 571-00-41 Faks: 8 (812) 571-00-27

e-mail: [GAU@rspb.ru](mailto:GAU@rspb.ru)

Sayt: [r21.spb.ru](http://r21.spb.ru)

#### МЕХНАТ HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге (Sankt-Peterburgning davlat mehnat inspeksiysi)

198095, Sankt-Peterburg, Зои Космодемьянской ко'chasi, 28-a uy

8 (812) 746-59-86

[www.git78.rostrud.ru](http://www.git78.rostrud.ru)

**Прокуратура г. Санкт-Петербурга (Sankt-Peterburg shahar Prokuratusari)** (chet el fuqarolari huquqlarini himoya qilish, rasmii shaxslarning noqonuniy, noto'g'ri chechimlari ustidan shikoya qilish) Qabul qilish manzili: Почтамтская ко'chasi, 1-uy Yozma murojaat uchun: 190000, Sankt-Peterburg, Почтамтская ко'chasi, 2/9 uy Navbatchi telefon – 8 (812) 315-48-53 <http://procspb.ru/>

**Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ по г. Санкт-Петербургу (RF ning Sankt-Peterburg bo'yicha qidiruv ishlari komitetining boshchi qidiruv boshqarmaligi)** (ishga majburlab, oylik haqini to'lamagan hollarda): 190000, Rossiya, Sankt-Peterburg, наб. реки Мойки, 86–88 Ishonch telefoni: 8 (812) 571-00-40 Navbatchi telefoni: 8 (812) 570-66-71 <http://spb.sledcom.ru/>

**Уполномоченный по правам человека в Санкт-Петербурге (Sankt-Peterburg Inson huquqlarini himoya qilish vakili)** (davlat organlari tomonidan chet el fuqarolarining huquqlari bajarilayotkanligini tekshirish) Sankt-Peterburg, Щербаков проспекти, 1/3 uy Tel. 8 (812) 764-00-54 <http://ombudsmanspb.ru/>

#### JAMIYAT TASHKIOTLARI

**БФ «ПСП-фонд»** (“PSP-fond” jamiyat tashkiloti) (muhojirlarga bepul yuridik yordam) –konsultasiyaga yozilish uchun tel. 8 (812) 337-57-85 [pspf.org](http://pspf.org), [vk.com/pspfond](http://vk.com/pspfond)

#### FOYDALI AXBOROT RESURSLAR

Fedirasiyaning Mehnat va ish bilan taminlash xizmatining elektron safifalari

[www.онлайнинспекция.рф](http://www.онлайнинспекция.рф), [www.rostrud.ru](http://www.rostrud.ru)

**Sankt-Peterburg sudlari**

<http://courts.spb.ru/>

**migrussia.ru** – “Muhojirlar va migratsiya. Mintaqaviy axborot portali”: Sankt-Peterburg va Rossiya Federatsiyasining boshqa hududlarida huquqiy yordam olish bo'yicha maslahatlar.

**МигрАзия +** – muhojirlar va ularning oila a'zolari uchun mobil ilovalar – YII va MDH fuqarolari uchun (Android telefonlari uchun)

Буклет «Трудоустройство и трудовые права»  
(на узбекском языке)

Разработан БФ «ПСП-фонд»

Автор-составитель: Якимов А.Н.



PETERBURGGA  
XUSH KELIBSIZ!



# МЕХНАТ VA МЕХНАТ HUQUQLARI

## МЕХНАТ MUHOJIRLARIGA YORDAM



2018  
2019

Agar siz Rossiyaga pul topish uchun kelgan bo'lsangiz, o'zingizning huquqlaringiz va majburiyatiringizni bilishingiz kerak. Bu sizga muammolardan qo'chishga yordam beradi.

#### Sizga yordam bo'lувчи oddiy maslahatlar:

- **Qonuniy ravishda ishlang:** noqonuniy ishlar qonunni jiddiy buzish hisoblanadi. Agar ishlayotgan bo'lsangiz, sizda mehnat yoki fuqarolik shartnomasi bo'lishi kerak;
- **O'zingizning huquqlaringizni biling:** ish beruvchi siz bilan shartnoma tuzishi kerak, u tomonidan imzolangan shartnomangizni bir nusxasini sizga berishi va ish haqini o'z vaqtida to'lashi shart. Mehnat shartnomasi asosida ishlasangiz siz dam olish, hafta oxirida va kasallik vaqtida dam olish huquqiga ega bo'lasiz;
- **O'zingizning ish beruvchingizni yahshi biling:** Siz ishlayotgan tashkilotning nomi va manzilini, menejerigizingning familiyasi, ismi va telefon raqamini bilishingiz kerak;
- **Vositachilar bilan aloqa qilmang:** ehtiyoj bo'ling - vositachilar sizdan bepul ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin;
- **Ish haqini to'lashning miqdori va shartlari haqida aniq gaplashib oling:** qancha pul to'lash kerakligini va qaysi ish uchun ekanligini bilishingiz shart. Bank kartangizda yoki buxgalteriya bo'limida pul olishingiz kerak - shaxsan va imzo chekib. Buxgalteriya bo'limida pul olgandan keyin to'lov varaqchasini olishingiz ham mumkin. Agar ishxonangiz sizdan qarzdor bo'lsa, ish beruvchingizdan tilxat yozdirib olib o'zingiz bilan birga saqlang;
- **Siz imzolagan har bir narsani diqqat bilan o'qing, ular dan nusxasini so'rang:** yozilganlarga rozi bo'imasangiz, hujjalarga imzo qo'y mang. Agar hujjat shaxsan sizga tegishli bo'lsa, sizga nusxasini berishlari shart;
- **Hujjalarni ish beruvchiga bermang:** hech kim pasportingizni, ish uchun patentingizni, sug'urta polisingizni, ish shartnomangizning nusxasini va boshqa hujjalaringizni olib qo'yish haqqiga ega emas. Shunungdek, harakatlanish erkinligingizni cheklashga, telefoningiz va hokazolarni olib qo'yishga xaqli emaslar. Agar pasportingizni olgan bo'lsalar yoki sizning erkinligingizni cheklagan bo'lsalar, bu jiddiy jinoyat hisoblanadi: bu holda politsiya bilan bog'laning!
- **Yordam so'rang:** agar ish beruvchi sizning huquqlaringizni buzsa, politsiya, prokuratura, Inson huquqlari bo'yicha vakil, mehnat inspeksiysi, sud, jamoat tashkilotlari sizga yordam beradilar.

## MEHNAT HUQUQLARINGIZNI QANDAY HIMoya QILISH MUMKIN

Ishchining mehnat huquqlari Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksida (TK PФ) qayd etilgan.

### Ish bilan ta'minlashda huquqlarni himoya qilish

Sizga mehnat shartnomasi ishga tushgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan berilishi kerak. Mehnat munosabatlari ish boshlanishi bilan boshlanadi (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 67-moddasi).

Ish beruvchi mehnat shartnomasi bo'yicha ishlaydigan har bir xodim uchun 5 kun ichida mehnat kitobchasini tayyorlashga majburdir (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 66-moddasi).

Ishga olish ish beruvchining buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Ishchi ishga joylashish haqidagi buyruqning nusxasini olish huquqiga ega (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Ish kodeksining) 68-moddasi ).

Ish beruvchi ishchi ishlagan vaqtga ular o'tasida hech qanday shartnoma tuzilmagan taqdirda ham to'lab berishga majburdir (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 67.1-moddasi).

### Yollangan mehnatdan himoya qilish

Yollangan mehnat, bu - ish beruvchi o'z ishchilarini boshqa ishxonalarga, ish munosabatlarini rasmiylashtirmasdan jo'natishi. Rossiyada yollangan mehnat taqiqlanadi (TK PФ (Mehnat kodeksining) 56.1 moddasi).

Xususiy ish bilan ta'minlash tashkilotlari o'z xodimlarini boshqa tashkilotlar yoki shaxslarga o'tkazishlari mumkin, faqat quydagilarni bajarishlari kerak:

- mehnat shartnomasida ishchining boshqa tashkilotda ishlayotganligini ko'rsatish;
- boshqa tashkilotda ishlashga jo'natilgan barcha hollarda xodim bilan qo'shimcha qo'shimcha shartnoma tuzish.

Agar siz xususiy ish bilan shug'ullanadigan agentlikka murojaat qilsangiz, ushbu shartlarning shartnomada ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling.

### Qonunga xi洛f ravishda ishdan xaydashga qarshi himoya

Ishdan tushuntirhsiz bo'shatish taqiqlanadi (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 76-moddasi). Ishdan bo'shatish, oldingi oyning oyligini to'lanmaslikka asos bo'la olmaydi.

Agar ish shartnomasi tugagan bo'lsa, ishchi ishdan bo'shatilgan kuni yoki yozma ravishda murojaat qilgan kuni ish haqini to'lashi shart ( TK PФ (Mehnat kodeksining) 84.1 moddasi, 140-moddasi).

Ishdan chetlatilgan taqdirda ishchiga ishdan bo'shatish to'g'risida qarorning nushasini va ishdan bo'shatilganligi qayd qilingan ish kitobchasini qaytarib berishlari shart.

### Ish haqi to'lovi kechikkan holda huquqlarni himoya qilish

Agar ish haqi 15 kundan ko'p vaqtga kechiktirilsa, xodim ish haqini to'lamaguncha ishni to'xtatish huquqiga ega (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 142-moddasi 2-qism). Xodim bu xaqda ish beruvchiga yozma ravishda xabar berish kerak.

Ish beruvchi ish haqini to'lamasa va yana boshqa haqlarni to'lamasa javobgarchilikka tortiladi (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 142-moddasi).

### Noqonuniy jarimalarga qarshi himoya

Ishchi o'z mehnat vazifalarini bajarmagan taqdirda, ish beruvchi yozma bayonet berishi, belgilangan tartibda ta'qib qilishi yoki ishdan bo'shatishi mumkin (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Ish kodeksining) 192-moddasi). Mehnat majburiyatlarini bajarmaganlik uchun jarimalar noqonuniydir!

### O'z-o'zini himoya qilish

Ishlovchi o'z huquqlarini mustaqil ravishda himoya qilishi mumkin. Ish beruvchi ishchilarning o'z mehnat huquqlarini himoya qilishayotganda, aralashish huquqiga ega emas, ularni mehnatga oid nizo paytida ishdan bo'shatisha haqqi yo'q ( TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 380-moddasi).

Ishlovchi ish beruvchidan mehnat shartnomasi, buyruqlar, qo'shimcha bitimlar, hisob-kitob varaqalari va boshqalarni so'rashga haqidir ( TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Ish kodeksining) 62-moddasi). Ish beruvchi ushbu nusxalarни ishchi ariza topshirganidan keyin 3 ish kuni ichida topshirishga majburdir.

### Kasaba uyushmasi / Profsoyuz yordami

Har bir ishchi kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish huquqiga ega va o'z huquqlarini himoya qilishda uning ko'magidan foydalanishi mumkin.

### Mehnat to'g'risidagi qonunga riona etilishi ustidan davlat nazorati

Mehnat to'g'risidagi qonuniga riona etilishiga Mehnat inspeksiysi va Prokuratura (TK PФ (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining) 353, 356-moddalari) javob beradi.